

“YAXSHILIK” VA “YOMONLIK” KONSEPTINING PAREMIOLOGIK DARAJADA VERBALLASHISHI

Bekbosinova Gauxar Maxambetbaevna

Berdaq nomidagi qoraqalpoq davlat Universiteti doktranti

Annotatsiya: Bu maqolada “yaxshilik” va “yomonlik” konseptining paremiologiyadagi ko‘rinishlari, ijobiy va salbiy fazilatlar haqida so‘z boradi.

Tayanch so‘zlar: yaxshilik, yomonlik, konsept, paremiologiya, vatanni sevis, vatan gadosi, saxiylilik, baxillik, mardlik, hayosizlik, nomardlik,

“Yaxshilik” va “Yomonlik” qarama-qarshi tushincha bo‘lib, odob-axloq nazariyasidagi asosiy birlik sanaladi. Odamlarning xatti-harakatlariga, ijtimoiy hodisalarga berilgan ijobiy yoki salbiy bahoni ifodalaydi. Yaxshilik – eng muhim fazilat bo‘lib, inson faoliyatining asl va azaliy mohiyatini anglatadi. U insonga kuchli ruhiy lazzat bag‘ishlashi barobarida, uni shaxsga aylantiradigan haqiqiy baxtga olib boradi. Yomonlik – yaxshilikning ziddi, shaxs va jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qiluvchi illat. Yolg‘onchilik, pastkashlik, munofikdik, behayolik, rahmsizlik, nomardlik, xiyonat kabi tushunchalarda namoyon bo‘ladi. Bu kabi konseptlar har bir xalqning paremalarida o‘z aksini topgan.

Paremiologiya – tilshunoslikning yangi ilmi bo‘lib, (yunoncha – paroimia - hikmatli so‘z, zarbulmasal va logiya – ilm) ma‘lum bir tildagi avloddan avlodga og‘zaki shaklda ko‘chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo‘lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralarni o‘rganadigan fan sohasidir. Paremlar avloddan avlodga faqat og‘zaki holdagina o‘tib kelganligi, xalq og‘zaki ijodining mahsuli bo‘lganligi uchun adabiyotshunoslikning o‘rganish ob‘yektini hisoblanadi, chunki ularning aksariyati ko‘pincha she‘riy shaklga o‘xshaydi va ularda o‘xshatish, antiteza, anafora, alliteratsiya, kinoya, piching kabi bir qancha tasviriy vositalar qo‘llanadi. Shu bilan birga paremlar so‘zlardan tuzilib, ma‘lum bir fikrni ifodalovchi gaplardan iborat bo‘lgani uchun tilshunoslikning ham o‘rganish ob‘yektidir. Paremlarni to‘plash, o‘rganish Mahmud Qoshg‘ariy (“Devonu lug‘otit turk”) va Gulxaniy (“Zarbulmasal”) zamonlaridan to hozirgi kunlarga davom etib kelmoqda.

Biz bu paremalardan maqollarni tilshunoslik jihatdan tadqiq qilishda qoraqalpoq xalq maqollaridan foydalandik. Maqol va naqlar qoraqalpoq tiliga arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, maqol – ta‘lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega qisqa ma‘noli so‘z, naql esa aytib beruvchi yetkazuvchi, ko‘chiruvchi ma‘nolarini anglatadi [1:24,24,29]. Maqollar asrlar davomida avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan muqaddas ruhiy mulkimiz sanaladi. Ularning yaralish ildizi milliy ongning paydo bo‘lish, rivojlanish davrlari bilan shambarchas bog‘liqdir. Maqollarning asosiy ro‘li yaxshi bilan yomonni bir-biridan ajtrata bilish va yaxshilikning natijalarini tushintirishdan iboratdir. Bu kabi maqollar “Qoraqalpoq folklori” ning 88-91-jildlarida berilgan [2:13-183]. Qoraqalpoq tili paremiologik fondidagi yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalarni bir nechta guruhlariga bo‘lish mumkin: Vatanni

sevish va vatan gadosi, saxiylik va baxillik, axloqsizlik, o'g'rilik, mardlik va nomardlik shular jumlasidandir.

Vatanni sevish va vatan gadosi. Inson o'g'li o'z eli, vatani bilan odamdir. Shuning uchun ham xalqimiz orasida vatanparvarlik, yurtni himoya qilish, vatanga xizmat qilish azaldan odamiylik sanalib ulug'langan. Bu kabi fazilatlar odamiylikning eng oliy, eng yaxshi fazilatlaridan bittasidir. Masalan:

El súygen-elge dos.

El xizmeti-er xizmeti.

El qádirin er biler,

Zer qádirin zerger biler.

Tuwılǵan eldiń kúni de, túni de ısıq t.b.

Bu maqollarda ona vatanga sodiqlik, vatani sevish, vatanning iliq mehri ko'rinsa, quyidagi maqollarda vatandan ayro tushishning azobi, vatan gadoyining tag'diri tasvirlangan:

Eliń menen adamsań,

Elden ayrılsań ladansań.

El bazar-elden shıqqan azar.

Elinen bezgen er ońbas,

Kólinen bezgen ǵaz ońbas,

Yarınan bezgen qız ońbas.

Hárkim elinen ayrılsa,

Jekkelik keler basına.

Bu singari maqollarning bir qiziq jihati shundaki, Misir toponimi unimli qo'llaniladi:

*Hárkimniń ósken jeri- **Mısır** sháhári.*

***Mısırd**a patsha bolǵannan,*

Óz elińde geday bol.

Hárkimniń óz eline,

***Mısır** kórinrer kózine.*

Ya'ni, Misr shahri ona vatan singari ulug'lanib, ona yurtga tenglashtiriladi. Bu haqida qozoq tilshunoslari K.Qarlibaeva, A.Timbolova, J.Ospanovalar turk xalqlariga oid frazeologizmlardagi ontroponimlar va toponimlarni tadqiq qilib, undagi Misr toponimi haqida yozadi: N.Ongdasinovning "Arabcha-qozoqcha izoh" lug'atida: "Misr shahar, katta shaharning o'xshatishi" deyilgan, yana "nur yog'ilgan, barakali, nazar tushgan o'lka" ma'nolari ham berilgan. Bu maqol no'g'ay tilida "Mısırd a patsha bolǵannan – álimde shoban bolǵan artıq" singari varianti ham uchraydi. Shuningdek, Misr toponimi bilan bog'liq "Munnan ketken ań quslar, Barıp Mısırd a qıslar" maqoli ham no'g'ay tilida qo'llaniladi. Ma'nosi – harkimning o'z yeri-barokali, risqli makon deb bilamiz. Demak ki, Misr so'zi butun turkiyzibon xalqlar uchun qadrli va muqaddas ma'no ekan [4:40-41]. Haqiqatdan ham, xalq og'zaki ijodida Madina, Misr toponimlari islom diniga bog'liq qo'llanilib, qadrli ma'nolarni ifodalagan.

Saxiylik va baqillik. Insonning yaxshi-yomon axloqi uning harakatlarida nomoyon bo'ladi. Inson insondan bilimi, yaxshi hulqi, ya'ni bo'yidagi yaxshi odatlari orqali ajralib turadi. Muhtoj odam bir narsa so'rasa, qo'lidan kelgancha unga xayr beradi. U so'ramasa ham, uning ahvolini tushunib, ehtiyoji va kambag'alligini e'tiborga oladi. Ehson va saxovat ko'rsatish vaqtida baxil bo'lmay, tanti bo'lish lozim. Chunki baxillik insonga xos tuban illat, lekin saxiylik esa eng nafis javohirdir. Bu qo'li ochiqlik namunalari maqollarda quyidagicha ko'rinishga ega:

*Aql ayta bermes,
Saqi soratpas.
Beregen xalqqa jara'gan,
Dañqi jáhände tara'gan.
Iri kisi iri tuwraydi.*

Bu maqollarda saxiy inson soramasa ham yordam berishi, saxovatli ishlari bilan xalqqa tanilishi haqida aytilgan. So'ngi misolda esa, kishining gavdasining kattaligi emas balki, qo'li ochiqligining, saxovatpeshaligining kattaligi nazarda tutilgan.

*Tar bolsañ tari'arsañ,
Bir bálege jolı'arsañ.
Saqi azsınsa,
Sıqmar kópsiner.
Opasızda Watan joq,
Sóksanarda iymán joq.*

Bu maqollar baxillik haqida bo'lib, qancha torlik qilsang baloga yo'liqish mumkinligi, agarziqna odam xayr bersa ham ko'p berdim deya nolishi haqida aytilgan. Qoraqalpoq tilida bu kabi baxil insonlarni "so'ksanar" deyishadi. Ma'nosi esa quyidagicha: tariq donini qaynatib, quvirib, kapagidan ajratib tozalangan doni so'k deyiladi [3:319]. So'k juda mayda donligi sababli ziqna, mayda odamlarga nisbatan aytilib, hatto birovga so'k bersa, so'kni ham sanab beradi ma'nosida qo'llaniladi. Maqollarda boy insonlarning baxilligi alohida tilga olinadi. Masalan:

*Kamba'gal bolsaq ta, ólgimiz kelmes,
Bay bolsaq ta bergimiz kelmes.
Bay toy berse, jarlınuñ jal'ız malın soraydı.*

Bu qatorlarda boy hatto o'z to'ylarida ham kambag'alning yolg'iz molini so'yish uchun so'rashi orqali baxillikning o'ta ketkan past harakatlarini oshkor qiladi.

Saxiylik va baxillikning bir necha darajalari bor. Saxiylikning eng oliy darajasi mol-dunyoga hojati bo'la turib, qo'lidagini boshqalarga berishdir. Baxillikning eng yuqori pog'onasi esa zarurat bo'lgan o'rinda ham o'ziga va ahliga sarflashdan baxillik qilishdir.

Axloqsizlik, o'g'rilik. Insonni eng badnom qiladigan hislatlarning biri bu axloqsizlik va o'g'rilikdir. Axloqsizlik qonun-qoidalarga xilof ish, hatti-harakat, tarbiyasizlikdir. Unga buzuqlik, fohishalikni misol qilish mumkin.

Fohishalik antik jamiyatda paydo bo'lgan. Ayniqsa Qadimgi Misr, Yunoniston, Rim va Xitoyda keng tarqalgan bo'lgan. Fohishalik

ko‘pincha „dunyodagi eng qadimiy kasb“ deb ataladi [5:5]. Maqollarda bu illat quyidagicha ko‘rinishga ega:

*Ġarda uyat bolmas,
Zorda diyanat bolmas.
Qatındı kóp erkeletseń, barıp-barıp Ġar bolar,
Qatını Ġar azamattıń, tili múnki, aldı jar bolar,*

Bu maqollarda bu hislatlarga ega insonlarda or-nomus, uyat bo‘lmasligi, uning zamirida esa tarbiyaning yetuk darajada berilmaganligi, hatto haddan tashqari erkalatish ham bu illatning sababchisi bo‘lishi haqida aytilgan. Tilshunos B.Yusupova “qar” so‘zi haqida yozib, bu so‘z turkiy tillarda ko‘p ma’noli so‘z ekanligi: qishda osmondan yog‘adigan qor, bilak qo‘lning qori va o‘lcham birligi antropomorfik kodga asosan qora uyning uwig‘ining pastki tarafi, shuning bilan birga “qar/Ġar” so‘zi “o‘g‘ri, bezorilar guruhi”, “yo‘ldan adashgan ayol, fohisha” ma’nolariga ham ega deb yozadi [6:234].

O‘g‘rilik esa birovning molini, buyumini ruxsatsiz bildirmasdan egallab olgan shaxsga nisbatan ishlatiladi.

*Suq semirmes, urı bayımas.
Qolınıń suǵı bolsa,
Urlıǵı kewilge ayan.
Urlıq túbi qorlıq*

Bu maqollarda o‘g‘rining o‘g‘irlagan narsasi o‘ziga buyirmasligi, elda o‘g‘ilik bo‘lsa kimdan gumon qilish hammaga ayonligi, hatto buni kasb qilganlarning holiga voyligi, hayoti xor-u zorlikda kechishi aytilib bu illat qoralanadi.

Mardlik va nomardlik. Bu tushunchalar xalq og‘zaki ijodidagi ertaklardan tortib, xalq qo‘shiqlarining mavzusiga aylangan. Mardlik bu-insonning ma’naviy xislati, nomardlikning ziddi, or-nomus, vijdon va sadoqatni, shaxsning olijanobligini ifodalaydigan, mard kishilarga xos ish, xatti-harakatni anglatuvchi tushuncha. Nomardlik esa tojik tilida no – old qo‘shimchasini olib, oliyhimmat, aytganini albatta amalga oshiradigan ma’nosini anglatuvchi mard sifatiga qo‘shib hosil qilingan bo‘lib, aytganini amalga oshirmaydigan, yaxshilikka yomonlik qaytaradigan ma’nosini anglatadi.

*Námárt – as ústinde,
Márt – is ústinde.
Námárt atası menen ayqasar.
Isiń tússe námertke,
Jaqsınıń bári qapılar.
Márt ózinen kóredi,
Námert joldasınan kóredi.*

Bu maqollarda mard inson bilan nomard insonning farqi, nomardning salbiy harakati-yu, mardning botirligi, ishdan qoshmasligi, omadsiz harakatlarda nomarddan farqli olaroq faxat o‘zini ayblashi haqida bayon qilingan.

Xulosa o'rnida shuni aytish joiz ki, yaxshilik konseptining periferik maydoniga Vatanni sevish, saxiylik, mardlik kabi oliy fazilatlar kiritiladi, yomonlik konseptining periferik maydoniga esa vatan gadosi, baxillik, axloqsizlik, o'g'rilik, va nomardlik kiradi. Demak, ma'no ijobiy bo'lsa "yaxshilik" konseptiga, salbiy ma'no ustun bo'lsa "yomonlik" konsepti bilan bog'liq bo'lar ekan.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Пахратдинов Қ. Өтемисов А. Қарақалпақ тилиндеги шығысы арабша сөзлер. Нөкис: «Qaraqalpaqstan» 2015 24 29 – бетлер.
2. Қарақалпақ фольклоры 88-100 том. -Нөкис"Илим" 2015.
3. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. VI Т.–Нөкис "Қарақалпақстан" 2023. 319 – б .
4. Қарлыбаева К.С. Тымболова А.О. Оспанова Ж.А. Түркі фразеологизмдеріндегі антропонимдер мен топонимдер Turkic Studies Journal электрон. научн. журн. 2022. №4 (2022) 40-41 <https://www.tsj.enu.kz>
5. Ronald B.. Flowers The prostitution of women and girls 1988 — 5 – b et. [McFarland & Co. McFarland](#)
6. Юсупова Б. Паремнология. Монография. –Нөкис: «Қарақалпақстан» 2024 234 – б .